

**THE ROLE OF MORAL AND ETHICAL EDUCATION IN FORMING KNOWLEDGE, SKILLS,
AND COMPETENCIES IN STUDENTS BY FUTURE EDUCATORS**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15097856>

I.I. Tuychiyeva

Head of the Department of Pedagogy at FarDU,

PhD in Pedagogical Sciences, Professor

Annotation: *This article discusses the role of moral and ethical education in shaping students' knowledge, skills, and competencies by future educators, as well as the improvement of education quality and efficiency. It also presents reflections on various priority programs aimed at developing students' practical skills in different subjects.*

Keywords and phrases: *future educators, new development, modern worldview, scientific-theoretical perspectives, continuous education, individual qualities, well-rounded person, educational standards, civil society, scientific-methodological.*

**РОЛЬ НРАВСТВЕННО-ЭТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЗНАНИЙ,
УМЕНИЙ И НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ БУДУЩИМИ ПЕДАГОГАМИ.**

И.И. Туйчиева

Заведующий кафедрой педагогики ФарДУ,

PhD по педагогическим наукам, профессор

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль нравственно-этического воспитания в формировании знаний, умений и навыков учащихся будущими педагогами, а также совершенствование качества и эффективности образования. Изложены размышления о различных приоритетных программах, направленных на развитие практических навыков учащихся по различным предметам.*

Ключевые слова и выражения: *будущие педагоги, новое развитие, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, индивидуальные качества, гармонично развитая личность, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методический.*

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI O'QUVCHILARDA BILIM KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING TUTGAN O'RNI**I.I. Tuychiyeva***FarDU pedagogika kafedrası mudiri,**p.f. b. f. d (PhD), professor*

Annotasiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda bo'lajak pedagoglarni o'quvchilarda bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni, Ta'lim sifatini va samaradorligini takomillashtirish, ularning fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab dasturlar ustuvor vazifalar to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so'z va iboralar: *bo'lajak pedagoglar, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.*

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida sifatli ta'limga erishishning eng muhim vazifalari belgilanib, amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan bu jarayonda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni dolzarbdir.

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, biror-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarning tiklanishini, milliy o'zlikni anglashni xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlari bilan uzviy bog'liq, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka yega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbayi an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Axloqiy tarbiya — shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviyaxloqiy tarbiya muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik

jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir.

Axloq (lotincha „moralis“ — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi.

„Axloq“, „xulq“ va „atvor“ so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Ayrim odamlar „Axloq — kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuyi“ deyishsa, boshqalar yesa „Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloq me'yorlari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat me'yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo'lsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi.

Pedagog va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi muammosi ko'pgina tadqiqotlar predmetiga aylangan. Masalan Rossiyalik olim N.V.Kuzminaning tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi komponentlari metodik kompetentlik, pedagogik psixologik kompetentlik va autopsixologik kompetentlik va ijtimoiy kompetentlikdan iborat deb sanab o'tilgan. Olimaning samaradorligi yuqori va samaradorligi sust bo'lgan pedagog haqida bildirgan mulohazalari diqqatga sazovor. Ushbu farq eng avvalo ta'lim oluvchilarning berilgan materialni o'zlashtirish jarayonidagi o'ziga hosliklarini hisobga olishi, ular faoliyatidagi individual farqlarni ko'ra olish qobiliyatida seziladi deya keltirib o'tgan. A.K.Markovanning ta'kidlashicha kompetentli pedagog o'z kasbiy faoliyatini yuqori darajada yo'lga qo'ygan, samarali pedagogik muloqotga kirisha oladigan, ta'lim va tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikni namoyon qilib, shaxs va professional sifatida shakllanuvchi mutaxassisdir. A.K.Markova pedagoglar kompetensiyasining bir necha turlarini ajratib ko'rsatdi: shaxsiy, ijtimoiy, individual, maxsus. Olimning fikriga ko'ra o'qituvchining kasbiy kompetentligi kasbiy pedagogik pozitsiya, kasbiy bilim va ko'nikmalar, shaxsiy hususiyatlar kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning yaxshi o'qishlarini, darslarga ishtiyoq bilan yondashishlarini istaydi. O'quvchi darsga qiziqmasa, o'qituvchining shijoatini so'ndiradi. Bu, albatta, pedagogik jarayonda bir qator muammolarni vujudga keltiradi. Zero, V. Suxomlinskiy aytganidek, „Agarda o'quvchida o'qishga qiziqish bo'lmasa, barcha izlanishlarimiz- u o'ylagan niyatimiz puchga chiqadi“. O'quvchi darslarga befarq bo'lib, unga qiziqmasa va extiyoj sezmasa, samarali o'qitishga erishish mushkul. Shu sababli o'qituvchi oldida o'quvchini o'quv jarayoniga qiziqtirish vazifasi turadi. Bolalarni darslarga qiziqtirishda boshlang'ich sinfdan jiddiy muammolarga duch kelinadi. Chunki bolalar

ko'p chalg'ishadi, shovqin- suron qilishadi, o'qituvchini tinglashmaydi, sinfdagi mashg'ulotlar va uy vazifalarini bajarishga qunt qilishmaydi. O'quvchi ulg'aygan sari ba'zan ularning fe'l-atvorida o'qishga qiziqmaslik bilan bog'liq sabablar ham ko'payib boradi. O'quv faoliyatini jonlantirishga intilishning an'anaviy usuli bu – yomon baxolar bilan "siylash" hisoblanadi. O'quvchi yomon baxodan ta'sirlanadi, ammo bu xam har doim ijobiy samara bermaydi. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda ularni rivojlantirib borish uchun asos hisoblanadi. Shu jihatdan bu jarayonda tashxis etish omilidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak pedagoglarni o'z o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, ya'ni ularni o'qishga, ta'lim olishga qiziqtirishi va ishtiyoq uyg'otishi bilan birga ularning idrok yetish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytirish kabi sifatlarini o'stirishga o'z kasbiy faoliyatini to'liq safarbar yetmog'i lozim. Bunda ular o'z o'quvchilarining ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi nuqtayi nazaridan), ma'naviy yehtiyoji, yashash muhiti (oiladagi turmush tarzi va ular yashaydigan jamoa — mahalladagi muhit umumsog'ligi) kabi omillarni ye'tiborga ola bilish qobiliyatiga yega bo'lmog'i lozim.

Bo'lajak pedagoglarni o'z kasbiy sohalarida quyidagi xislatlarga yega bo'lishi lozim bo'ladi: o'z o'quvchilarini sevish va ular bilan ishlashga qiziqish; pedagogik faoliyatni sevish va bu faoliyatni o'zining hayotiy yehtiyojiga aylantirish; ruhiy va pedagogik jihatdan ham ziyrak, kuzatuvchan, sinchkov bo'lish; pedagogik taktik va tasavvurga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish; adolatlilik, dilkashlik, talabchanlik va qat'iyatlilikni uyg'un holda olib bora olishlik; maqsadga intilishda to'g'ri yo'lni tanlay olishlik; vazminlik, dilkashlik, o'zini idora qilishlik, shuningdek, kasbiy faoliyatga layoqatning yuksakligi va shu kabilar.

Shuning bilan birga bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoshlardagi burchga mas'uliyat (javobgarlik hissi)ni tarbiyalash sir-asrorlarini mukammal yegallamog'i lozim. Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining ma'naviy qiyofasi shakllanishida, asosan, quyidagilarga e'tibor berish kerak ekan:

- oila, mahalla va maktabni muqaddas deb bilish;

- bola xatti-harakatini tahlil qila bilish va rejalashtirilgan

ta'lim-tarbiya, bola ongi va tasavvuriga mos qilib, halol va harom, to'g'rilik va yegrilik, yaxshi va yomon, mardlik va nomardlik, ma'naviyatlilik va yaxshilik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini singdira olish qobiliyatiga yega bo'lish;

- bolaning yerkin, mustaqil va to'g'ri, keng ko'lamli fikrlashini shakllantirishning shakl, usul va vositalarining optimal variantlarini tanlay olish;

- o'tmish boy milliy-ma'naviy merosimizga hurmat uyg'ota bilish uslubiyatini yarata bilish;

- milliy g'ururni uyg'otish, davlat ramzlariga hurmat va unga mos g'ururni shakllantirish, fidoyilikni shakllantirishning sir-asrorlarini o'rgata bilish;

— oʻz oʻquvchilarini goʻzal, ziyrak, aqlli, ongli, milliy gʻururli, sezgir, sinchkov, farosatli, madaniyatli, maʼnaviyatli va shu kabi xislatlarni shakllantirishga innovasion yondashuvlar qila olishga erishish;

— oʻz oʻquvchilarini vatanparvar, baynalminalchi, fuqarolik burchini chuqur his qiluvchi va shuningdek, milliy istiqlol gʻoyalariga sodiq maʼnaviyatli kishilar darajasida tarbiyalashga yangicha munosabatlarni shakllantirish va shu kabilar.

Xulosa qilib aytganda Maʼnaviy qadriyatlar va milliy oʻzlikni anglashning tiklanishi, biror-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni asosiy yoʻnalishlaridan biri bu boʻlajak pedagoglarni oʻquvchilarda bilim koʻnikmalarni shakllantirishdir. Demak, boʻlajak pedagoglarni oʻquvchilarda avvalo oʻzining mustaqil fikriga ega boʻlishi, oʻz-oʻzini boshqara olishi ham juda muhim sanaladi. Ularda bilim koʻnikmalarni shakllantirish uchun kasb hunarga oʻrgatish, mehnatkash, sabr toqatli, qatʼiyatli va tirishqoq qilib tarbiyalash oʻquvchilarda hayotiy maqsadlarini belgilashda ancha qoʻl keladi. Shu bilan bir qatorda mustaqil shugʻullanishlari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati ham rivojlangan boʻlishi kerak. Koʻproq badiiy adabiyotlar mutolaa qilishi asosiy mezonlardan sanaladi.

Shuni taʼkidlash lozimki, inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uchun boʻlajak oʻqituvchi quyidagi muhim sifatlarga ega boʻlishi lozim: empatiya, refleksiya, mobillik va moslashuvchanlik, hamkorlik qobiliyati, taʼlim oluvchilar ehtiyojlariga nisbatan senzitivlik, muloqotchanlik, oʻz oʻzini boshqara olish koʻnikmasi va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

2. Тоджибаева К. С. К. Профессиональная педагогическая компетентность учителя: феноменология понятия //Вопросы науки и образования.

3. Кузьмина О. С. Особенности организации подготовки педагогов к работе в условиях инклюзивного образования // В мире научных открытий.

4. Красноярск: Научноинновационный центр (Проблемы науки и образования).

5. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).